

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA  
ADABIYOTI UNIVERSITETI  
O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI  
O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI KAFEDRASI**

**“HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI” FANIDAN  
O‘QITUVCHI SILLABUSI**

**Tuzuvchi: filologiya fanlari nomzodi, dotsent Sayidiraximova Nasiba Sayidmaxamadovna**

<b>Fan/modul kodi</b> 300.3. HO‘AT15M		<b>O‘quv yili</b> 2020-2021	<b>Semestr</b> 2 (bahorgi)	<b>ECTS - Kreditlar</b> 5	
<b>2-semestrda</b> gi ECTS – <b>Kreditlar soni</b> 5		<b>Ta’lim tili</b> O‘zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 5	
<b>Fanning darajasi</b> Yuqori darajadagi fan - 300		<b>Fan/modul turi</b> Majburiy		<b>Modul rahbari</b> Sayidiraximova Nasiba. sayidirahimova@navoiy-uni.uz	
<b>Universitet kampusi</b> 1-blok		<b>Hafta kunlari</b> seshanba, payshanba, juma		<b>Vaqt</b> Kun davomida	
	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta’lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>	
	<i>Hozirgi o‘zbek adabiy tili</i>	<i>2-semestr</i> 75	<i>2-semestr</i> 75	<i>2-semestr</i> 150	
<b>2-semestr</b>	Ma’ruza	25			
	Amaliy mashg‘ulot	25			
	Seminar mashg‘uloti	25			
	<b>JAMI</b>	<b>75</b>	<b>75</b>	<b>150</b>	

**Fanning tavsifi:**

“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining o‘quv kurslari qatoridagi o‘rni va ahamiyati alohida bo‘lib, bu fan talabalarni o‘zbek tilining, demakki, davlat tilining rivojlanish qonuniyatlari, uning strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari, fonetik-fonologik, leksik, semantik, grammatik, grafik tizimlari, orfografik va orfoepik me’yorlari, til birliklarining nominativ, kommunikativ, emotiv va boshqa funksiyalarni bajarishdagi ishtiroki masalalari bilan tanishtiradi bu jarayonda til va jamiyat, til va ong, til va tafakkur munosabatlari qonuniyatlariga tayanib ish ko‘riladi. Mazkur fanning o‘qitilishida nazariyotchi tilshunos olimlarning g‘oyalari metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Fanning mohiyati:**

hozirgi o‘zbek adabiy tili sanalib, unda talabalarga hozirgi o‘zbek tilining fonetik-fonologik, leksik-semantik va grammatik sathlari, ulardagi struktura va sistema munosabatlari; hozirgi o‘zbek tilining milliy til sifatidagi tavsifi, milliy tilning yuqori va quyi bosqichlari: adabiy til, uning yashash shakllari va me’yorlari, xizmat doirasi bo‘yicha tegishli bilim berish, ularda shu bilimdan unumli foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish maqsad qilindi. Talabalarni o‘zbek tilshunosligining fonetika, fonologiya, grafika, orfografiya, orfoepiya, leksika, frazeologiya, leksikografiya, morfemika, so‘z ysalishi va grammatika (morfologiya va sintaksis) bo‘limlari bilan tanishtirish, muayyan bilimlar bilan qurollantirish esa fan oldidagi asosiy vazifalardan sanaladi.

**Fanning natijasida:**

Hozirgi o‘zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va dialektal asoslari; fonetika va fonologiya, ularning organish birliklari, tadqiqot aspektlari, fonema ottenkalari, fonetik hodisalar; grafik tizimning asosiy birligi bo‘lgan grafema, orfografiya prinsiplari, orfoepiya qoidalari; leksema va frazemalarning

semantik tarkibi, leksik ma'no va turlari, leksemalarning turli xil nuqtayi nazardan tavsifi haqida etarli bilimga ega bo'ladi.

**Baholash mezonlari:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018-yil 9-avgustdagi 19-2018-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan 2018-yil 26-sentabrda 3069-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Oliy ta'lim muassasalarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to'g'risidagi" nizomga muvofiq ishlab chiqildi. Baholash JN, ON, YN dan iborat.

Turi	Foizi	Saralash turi	Shakli
Yozma	60%	JN, ON, YN	savol-javob, fonetik tahlil, leksik tahlil, semantik tahlil
Mustaqil ta'lim	40%		taqdimot, savollarga javob yozish, tahlillar

**Ta'lim berish va o'qitish metodlari:**

muammoli ta'lim, taqdimot, guruhli va individual loyihalar.

**Kalit so'zlar:**

adabiy til, milliy til, dialekt, til, lison, nutq, til sathlari, til birliklar, ilmiy bilish, UMIS, AHVO, lisoniy birliklar, nutqiy birliklar, paradigma, lisoniy munosabat, paradigmatic munosabat, sintagmatik munosabat, lisoniy ziddiyat, noto'liq (privativ) ziddiyat, teng qiymatli (ekvipolent) ziddiyat, darajali (gradual) ziddiyat, fonetika, segment birlikalar, supersegment birliklar, umumiy fonetika, xususiy fonetika, qiyosiy fonetika, eksperimental fonetika, fizik-akustik aspekt, anatomik-fiziologik aspekt, perseptiv aspekt, lingvistik-funksional aspekt, fonema, fonologik zidlanishlar, korrelyatsiya, fonema ottentalari, transkripsiya, vokalizm, konsonantizmi, fonetik hodisalar, bo'g'in, urg'u, intonatsiya, leksik sath, leksema, so'z, leksik ma'no, lisoniy ma'no, nutqiy ma'no, okkazonal ma'no, semema, sema, so'zning ma'no taraqqiyoti, metafora, vazifadoshlik; metonimiya, sinekdoxa, lug'aviy qator, lug'aviy mikrosistema, lug'aviy-ma'noviy guruh, lug'aviy-mavzuviy guruh, lug'aviy-mavzuviy to'da, lug'aviy-mazmuniy maydon, sinonimiya, antonimiya, giponimiya, graduonimiya, partonimiya, qo'llanilishi chegaralangan leksika, chegaralanmagan leksika, arxaizm, istorizm, so'z o'zlashtirish, frazeologiya, frazema, perifraza, leksikografiya, lug'at.

**Mavzular ro'yxati:**

**"Hozirgi o'zbek adabiy tili" dan ma'ruza mashg'ulotlari:**

*2-semestr*

№	Mavzular	Dars soatlari hajmi
1.	Kirish. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" fanining maqsad va vazifalari.	2
2.	Til, lison va nutq munosabati. Lisoniy paradigma.	2
3.	Lisoniy munosabat va uning turlari.	2
4.	Hozirgi o'zbek adabiy tilining fonetik sathi.	2
5.	Hozirgi o'zbek adabiy tili fonologiyasi.	2
6.	Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik sathi va leksikologiyasi.	2
7.	Semema va uning tarkibiy qismlari.	2
8.	O'zbek tilida leksik-semantik munosabatlar.	2
9.	Leksikaning system tabiati. Leksemalararo lisoniy ziddiyatlar.	2
10.	O'zbek tili leksikasi tasnifi.	2
11.	O'zbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti.	2
12.	O'zbek tili frazeologiyasi.	2
13.	O'zbek tili leksikografiyasi.	1

**Jami:****25**

**“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” dan amaliy mashg‘ulot mavzulari**  
*2 – semestr*

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
1.	Matnni lisoniy va nutqiy birliklarga ajratish bo‘yicha mashqlar tahlili.	2
2.	Lisoniy munosabat va lisoniy ziddiyat bo‘yicha mashqlar tahlili.	2
3.	Fonemalarning lisoniy va nutqiy xususiyatlari bo‘yicha mashqlar tahlili.	2
4.	So‘z urg‘usi va bo‘g‘in turlari bo‘yicha mashqlar tahlili.	2
5.	Fonetik va fonematik tahlil.	2
6.	Orfografiya va orfoepiya tamoyillari bo‘yicha mashqlar tahlili.	2
7.	Kompleks fonetik-orfoepik-orfografik tahlil.	2
8.	Leksema va so‘z munosabati bo‘yicha mashqlar tahlili.	2
9.	Leksik ziddiyatlar bo‘yicha mashqlar tahlili.	2
10.	Semema va nutqiy ma‘no, sema va uning turlari bo‘yicha mashqlar tahlili.	2
11.	So‘z ma‘nosi taraqqiyoti, hosila ma‘noning vujudga kelish yo‘llari va usullarini farqlash bo‘yicha mashqlar tahlili.	2
12.	Leksemalarning shakl va ma‘no munosabatiga ko‘ra mashqlar tahlili.	2
13.	Leksemalarning tasnifi bo‘yicha mashqlar tahlili.	1
	<b>Jami:</b>	<b>25</b>

**“Hozirgi o‘zbek adabiy tili” dan amaliy mashg‘ulot mavzulari**  
*2 – semestr*

<b>№</b>	<b>Mavzular</b>	<b>Dars soatlari hajmi</b>
1.	O‘zbek tilining taraqqiyot bosqichlari, manbalari va dialektal tarkibi.	1
2.	O‘zbek tilshunosligi taraqqiyoti va unda yangi lingvistik paradigmalar.	2
3.	Hozirgi o‘zbek adabiy tilida lison, nutq, meyor munosabati. Lisoniy va nutqiy birliklar.	2
4.	Hozirgi o‘zbek adabiy tilida lisoniy munosabat va uning turlari.	2
5.	Lisoniy ziddiyatlar. Lisoniy tasnif va uning turlari.	2
6.	Fonetika va fonologiya. Fonema va tovushning dialektik munosabati.	2
7.	O‘zbek tilshunosligida aksentuatsiya va sillabika. Urg‘u va bo‘g‘in.	2
8.	O‘zbek tilining yozuv tizimlari taraqqiyoti: ta‘rix va muosir.	2
9.	O‘zbek tili orfografiyasining asosiy prinsiplari.	2
10.	Leksik sath va uning birligi lingvistik muammo sifatida.	2
11.	Leksemaning semantik strukturasi. Semema va sema munosabati. Sema turlari. Monosemiya va polisemiya.	2
12.	Leksik-semantik sistemalar: lug‘aviy-ma‘noviy guruh, lug‘aviy-mazmuniy to‘da, lug‘aviy-mazmuniy maydon.	2
13.	O‘zbek tilidagi leksemalarning shakl va ma‘no munosabatlari: omonimiya, sinonimiya, antonimiya.	2
	<b>Jami:</b>	<b>25</b>

**Fan bo‘yicha savollar to‘plami:**

1. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” fanining predmeti, maqsad va vazifalari haqida ma‘lumot bering.
2. Formal va substansial tahlil.
3. O‘zbek xalqi va uning shakllanish tarixi.

4. O‘zbek adabiy tili taraqqiyotini davrlashtirish haqida ma’lumot bering.
5. Hozirgi o‘zbek adabiy tilining shevalarga munosabati.
6. O‘zbek tilining o‘rganilish tarixining 1-bosqichi.
7. O‘zbek tilining o‘rganilish tarixining 2-bosqichi.
8. O‘zbek tilining o‘rganilish tarixining 3-bosqichi.
9. Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari.
10. Ilmiy bilish va uning bosqichlari.
11. UMIS va AHVONing lisoniy tizimda voqelanishi.
12. Til, lison va nutq munosabati,
13. Til sathlari va birliklari.
14. Paradigmatik munosabat, sintagmatik munosabat, ularning xususiyatlari.
15. O‘zbek tili tizimida lisoniy ziddiyatning turlari.
16. O‘zbek tili fonetikasi va fonologiyasi tushunchalari.
17. Fonetikaning turlari, ularning maqsad va vazifalari haqida ma’lumot bering.
18. Nutq tovushining turlari, xususiyatlari.
19. O‘zbek nutq tovushlarining fizik-akustik aspekti haqida ma’lumot bering
20. O‘zbek nutq tovushlarining anatomik-fiziologik aspekti.
21. Fonetikaning lingivistik-funksional aspekti haqida ma’lumot bering.
22. Fonetikaning obykti haqida gapiring.
23. Fonetikaning haqida gapiring.
24. Segment birliklar haqida gapiring.
25. Supersgment birliklar haqida gapiring.
26. Tilning tovush tomoni ancha murakkab sanaladi.Til tovushlarining necha tomoni mavjud?
27. Fonema va tovush haqida gapiring.
28. Unli fonemalar paradigmasi va unilarning asosiy belgilari haqida gapiring.
29. Undosh fonemalar paradigmasi haqida gapiring.
30. Fonema va tovush munosabati, unda lison va nutq munosabatining aks etishini tushuntiring
31. Unli fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, unli fonemalarni tasniflash asoslarini keltiring.
32. Undosh fonemalar va ularning substansial xususiyatlari, undosh fonemalarni tasniflash asoslarini keltiring.
33. Fonemalarning variantlashuvi haqida gapiring.
34. Kombinator-pozitsion o‘zgarish haqida gapiring.
35. Fonologik tizimning tarixiy taraqqiyotida sodir bo‘ladigan divergensiya va konvergensiya nazariyalarini kim ishlab chiqqan?
36. Artikulatsiya usuliga ko‘ra undosh fonemalarning guruhlanishi qaysi qatorda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?
37. Sonantlar shovqinlilardan qanday farqlanadi?
38. Fonemalarning majburiy ottenkalarini tushuntiring.
39. Fonemalarning fakultativ ottenkalarini tushuntiring.
40. Fonologik oppozitsiya to‘g‘ri ta’riflangan.
41. Morfonologiya haqida gapiring.
42. Morfonema haqida gapiring.
43. So‘z va bo‘g‘in tuzilishi haqida gapiring.
44. So‘z va morfema variatsiyasi haqida gapiring.
45. Kompozitsion derevatsiya va analitik shakl yasalishidagi morfonema haqida gapiring.
46. Reduplikatsiya jarayonidagi o‘zgarish haqida gapiring.
47. Leksikologiya haqida tushuncha bering.
48. Leksikologiyaning turlari haqida ma’lumot bering
49. Leksik sath, uning xususiyatlari va birligi haqida ma’lumot bering.
50. Leksema va so‘z, ularning xususiyatlarini tushuntiring.
51. Leksemaning ikki plani haqida ma’lumot bering.

52. Leksemaning shakl tomoni qanday atamalar bilan nomlanadi?
53. Leksemaning mazmun tomoni ushuni qanday atamalar qo'llanadi?
54. Leksik ma'no va semema atamasining munosabati haqida tushuntiring.
55. Leksemaning semantik strukturasi deyilganda nima nazarda tutiladi?
56. Sememaning strukturasi nimalardan iborat?
57. Leksemaning ongda paradigmatic va sintakmatik asosda yashashini izohlang'
58. Semema va nutqiy ma'no nima?
59. Uzual va okkazional ma'no.
60. Sema va uning xususiyatlari haqida gapiring.
61. Semaning turlari haqida gapiring.
62. Sememaning tarkibi qanday tuzilgan?
63. Semema semalarining asosiy tiplari M.Mirtojiev talqinida qanday berilgan?
64. Sema turlarining Sh.Rahmatullaev asarlarida qabday yoritilgan?
65. Boshqa adabiyotlarda semalar tasnifinigi yoritilishi haqida gapiring.
66. Sema haqida ma'lumot bering.
67. Semalarning ma'no xususiyatiga ko'ra qanday turlari mavjud?
68. Denotativ sema deb nimaga aytiladi?
69. Konnotativ sema deb nimaga aytiladi?
70. Vazifa semasining ajratilishiga sizning munosabatingiz qanday?
71. Integral sema haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
72. Differensial sema haqida ma'lumot bering va misollar keltiring.
73. Arxisema deb nimaga aytiladi?
74. Leksemaning nutqiy voqelanishi, unga ta'sir qiluvchi lisoniy va nolisoniy omillar haqida gapiring.
75. Leksema ma'nosining torayishi va kengayishi haqida gapiring.
76. Semema va nutqiy ma'no haqida gapiring.
77. Sememaning nutqqa xoslanishi haqida gapiring.
78. Leksik ma'noning o'zgarish sabablari nimalardan iborat?
79. Leksik ma'noning o'zgarish yo'llari haqida gapiring.
80. Metafora va uning turlari haqida ma'lumot bering.
81. Metonimiya va uning turlari haqida ma'lumot bering.
82. Sinekdoxa va uning turlari haqida ma'lumot bering.
83. Vazifadoshlik haqida ma'lumot bering
84. Leksik ma'nodagi o'zgarishning natijalari qanday bo'ladi?
85. Leksik ma'no taraqqiyoti haqida ma'lumot bering.
86. O'zbek tilida leksik-semantik sistemalar haqida gapiring.
87. Leksema – shakl va ma'no unsuridan iborat sistema sifatida.
88. Lug'aviy mikrosistema haqida gapiring.
89. Lug'aviy-mavzuviy guruh haqida gapiring.
90. Lug'aviy-mavzuviy to'da haqida gapiring.
91. Lug'aviy-mazmuniy maydon haqida gapiring.
92. Fizikada maydon tushunshasi qanday ma'no kasb etadi?
93. Tilshunoslikka maydon tushunshasi kim olib kirgan?
94. Tilshunoslikda maydon tushunshasi nimani bildiradi?
95. Lisoniy maydonning qanday turlari mavjud?
96. Mazmuniy maydon nazariyasining shakllanishi haqida ma'lumot bering.
97. O'zbek tilshunosligida mazmuniy maydon nazariyasining shakllanishi.
98. O'zbek tilshunosligida maydon bo'yicha qilingan ilmiy ishlarni tavsiflang.
99. O'zbek tilshunosligida qanday maydonlar tahlil qilingan?
100. Sinonimiya, sinonimik qator, dominanta haqida ma'lumot bering
101. Lisoniy sinonimlar va nutqiy sinonimlar haqida gapiring.
102. Sinonimik darajalanish (graduonimiya) haqida gapiring.

103. Lugʻaviy sinonimlarning markaz va qurshov qatlami haqida maʼlumot bering.
104. Absolyut sinonimlar haqida Sh. Rahmatullaev qanday fikr bildiradi?
105. Kontekstual sinonimlar lisoniy hodisami yoki nutqiy?
106. Oʻzbek tili leksikasida lisoniy ziddiyatlarning amal qilishi haqida gapiring.
107. Leksik antonimiya. Antonimik juftlik haqida gapiring.
108. Konkret narsa otlarida antonimiya mavjudmi?
109. Toza-kirlangan soʻzlari oʻrtasida qanday munosabat mavjud?
110. Aka va uka leksemalari antonim boʻla oladimi?
111. Mantiqiy markaz hamma antonimik juftliklarda kuzatiladimi?
112. Feʼning boʻlishli-boʻlishsiz shakllari antonimiyani hosil qila oladimi?
113. *Opa-singil, togʻa-xola* qanday soʻzlar?
114. Mantiqiy markazga ega boʻlmagan antonimik juftlikka misol keltiring.
115. Antonimlar qanday uslubiy vosita hosil qiladi?
116. Leksik graduonimiya boʻyicha nomzodlik ishini amalga oshirgan olim kim?
117. Shopmoq-yugurmoq-yelmoq leksemalararo qanday leksik-semantik munosabat mavjud?
118. Denotativ maʼnoning darajalanishi haqida gapiring.
119. Konnotativ maʼnoning darajalanishi haqida gapiring.
120. Giperonimning taʼrifini ayting haqida gapiring.
121. Giponim nima?
122. Ekvonimning taʼrifini tushuntiring.
123. *Xona-eshik* leksemalari qanday leksik-semantik munosabatda?
124. *Gul-lola* munosabatida giponim leksemani aniqlang.
125. Millat-oʻzbek leksemalari munosabtila giponim leksemani aniqlang.
126. Omonimlar, omoformalar haqida gapiring.
127. Omonimiyaga yondosh hodisalar: omofonlar va omograflar haqida gapiring.
128. Paronim va paranomaziya haqida gapiring.
129. Qoʻllanilishi chegaralangan va chegaralanmagan leksika haqida maʼlumot bering/
130. Qoʻllanilish davri chegaralangan leksika haqida gapiring.
131. Qoʻllanilish doirasi chegaralangan leksika haqida gapiring.
132. Ifodaviylik va uslubiy xoslanganlik jihatidan oʻzbek tili leksikasi.
133. Oʻzbek tili leksikasining tarixiy taraqqiyoti haqida gapiring.
134. Oʻzbek tili leksikasida eskirgan qatlam va uning turlari: arxaizmlar va istorizmlar haqida gapiring.
135. Neologizmlar haqida gapiring.
136. Soʻz oʻzlashtirish. Oʻzlashma va olinma soʻzlar. Soʻz olish yoʻllari haqida gapiring.
137. Oʻzbek tilida onomastik leksika, uning turlari va tarkibi haqida gapiring.
138. Oʻzbek tili frazeologiyasi haqida gapiring.
139. Frazema. Frazeologik maʼno, uning turlari haqida gapiring.
140. Frazemalarning nutqiy voqelanishi, unga taʼsir qiluvchi lisoniy va nolisoniy omillar haqida gapiring.
141. Frazeologik sinonimiya haqida gapiring.
142. Frazeologik antonimiya haqida gapiring.
143. Frazeologik omonimiya haqida gapiring.
144. Leksikografiya haqida gapiring.
145. Leksikografiyaning ijtimoiy vazifalari haqida gapiring.
146. Umumiy ensiklopedik lugʻatlar haqida gapiring.
147. Maxsus ensiklopedik lugʻatlar haqida gapiring.
148. Lugʻat maqolalarining joylashtirilish tartibi haqida gapiring.
149. Lugʻat maqolalarining joylashtirilish sxemasi haqida gapiring.
150. Maxsus lugʻatlar: filologik lugʻatlar haqida gapiring.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili (Kirish.Fonetik sath. Leksik-semantik sath). Darslik. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018.
- 2.Lutfullayeva D., Davlatova R., Saparniyazova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Amaliy mashg'ulotlar uchun materiallar: O'quv qo'llanma. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2018. – 280 b.
- 3.Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2009.
4. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. – Toshkent: O'zMU, 2013.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 1.Mirziyoyev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan irbga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
- 2.Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
- 3.Sayfullayeva R. va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010.
- 4.Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. –Toshkent: O'qituvchi, 1995.
- 5.Mirtojiyev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2011.
- 6.Zamonaviy o'zbek tili. Morfologiya. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2008.
- 7.Zamonaviy o'zbek tili. Sintaksis. Darslik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2013.
- 8.Mirtojiyev M. O'zbek tili fonetikasi. – Toshkent: Fan, 2013.

### **Internet saytlari**

- 1.<http://www.ziyonet.uz>
- 2.<http://www.thinsan.com>
- 3.<http://www.literature.uz>
- 4.<http://www.genhis.philol.ru>

### **O'qituvchining kontakt ma'lumotlari:**

tel: +998 99 440 74 18

e-mail: [sayidirahimova@navoiy-uni.uz](mailto:sayidirahimova@navoiy-uni.uz)

### **O'qituvchi bilan haftalik konsultatsiya vaqti:**

seshanba, payshanba, juma